

## Boshlangich sinf o‘quvchilarining matabga intellektual tayyorgarlik muammosi

Go‘zal Xolmuhammad qizi Rustamova  
Namangan davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik matab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlarining rivojlanishi, matabga umumiy tayyorgarlik, bolaning matabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma’naviy, estetik va jismoniy rivolanishi, bolaning matab ta’limining yangi sharaoitlariga va o‘quv materialini ongli egallashi hamda faol kirib borishlari yoritib o‘tilgan. Jumladan maqolada kichik matab yoshidagi bolalarning matabga tayyorgarligi davomida sodir bo‘ladigan psixologik o‘zgarishlari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kichik matab yosh davri, motiv, shaxsiy tayyorgarlik, intellektual tayyorgarlik, o‘quv faoliyatiga tayyorgarlik, harakat tayyorgarligi, psixik faollik

## The problem of intellectual preparation of primary school students

Guzal Kholmuhhammad kizi Rustamova  
Namangan State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article covers the development of psychological characteristics of children of small school age, General preparation for school, mental, spiritual, aesthetic and physical narration of the child by the time of going to school, conscious acquisition and active penetration of the child’s school education into new sharaoites and educational material. In particular, the article provides information on psychological changes that occur during school preparation of children of small school age.

**Keywords:** small school age period, motive, personal training, intellectual training, preparation for educational activities, movement training. psychic activity

### Kirish

Bugungi kunda psixologiya fanida kichik matab yoshi davriga 7 yoshdan boshlab 10 (11) yoshgacha bo‘lgan boshlangich sinf (I-IV) tarbiyalanuvchi o‘quvchilari kiritiladi. Bu yillarda bolaning hayoti va faoliyatida muhim o‘zgarishlar ro‘y beradi. Chunki ularning psixikasida ham o‘zgarishlar sezilarli darajada ortgan bo‘ladi. Bolaning matabga borishi uning hayotida burulish chogidir.[3] Bola matabga kirib o‘qiy boshlashi bilanoq uning hayotida asosiy faoliyat turi o‘qish bo‘lib

qoladi. Maktabda bola tizimli ravishda yangiliklar olib boradi, bu o‘quvchilarning kundan kunga orttirib borayotgan xilma-xil mavzudagi bilimlarning manbayidir.

Bolaning bilimlarni sistemali tarzda o‘zlashtirishi natijasida undagi bilimning doirasi yanada kengadi, aqliy jarayonlar rivojlanadi shu bilan bir qatorda bolaning emotSIONAL-irodaviy xususiyatlari qayta tarkib topib rivojiana boshlaydi. Maktabdagagi ta’lim jarayonining o‘zi bolaning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq va diqqatlariga yangi talablar qo‘yadi.

Kichik maktab yoshida maktabga intellektual tayyorgarlik muhim hisoblanadi. Bu tevarak-atrofda mo‘jal ola bilish, bilimlar zaxirasining mavjudligi. Idrok va ko‘rgazmali-obrazli tafakkurning ma’lum darajada rivojlanganligi. Ko‘pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta’limga asos bo‘lishi mumkin, ammo so‘z boyligi, ma’lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘la olmaydi.[1]

Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma’lum bir xulosa chiqara olish, shu bilan birga, yetarli darajada rivojangan boshqa bilish jarayonlarini ham talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalariniga emas, balki organizmning tabiat bilan bogliqligini va o‘zaro ta’sirini ham tushunishi hamda o‘zlashtirishi mumkin. 6-7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishning natijasi bo‘lib, yuqori darajada rivojangan ko‘rgazmali obrazli tafakkur bilan bola atrof olamdagagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bogliqlikni ajrata olishi hamdir. [4] Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, ko‘rgazmali-harakatli va ko‘rgazmali-obrazli tafakkur nafaqat 6-7 yoshli bolalar, balki kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ham aqliy rivojlanishida asosiy vazifani bajaradi.

Kichik yoshdagagi o‘quvchilarning yuqorida ko‘rsatilgan xilma-xil qiziqishlari bilan bir qatorda individual qiziqishlari ham tugula boshlaydi. Ba’zi o‘quvchilar haykaltaroshlikka ko‘proq qiziqsalar, ba’zilari musiqa, she’riyatga muhabbat qo‘yadilar. Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o‘ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat muayyan bilim ko‘nikma va malakalarni egallahga qartilmay, balki o‘quvchanlik xohishini aks ettirishdan ham iboratdir. Kichik maktab yoshdagagi bolalar tez chalgiydilar, uzoq vaqt diqqatlarini bir narsaga qarata olmaydilar ta’sirchan hamda emotSIONAL bo‘ladilar.[5]

1-jadval

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchi faolligining asosan uch xil ko‘rinishi mavjud bo‘lib, bular		
Jismoni faollik	Ijtimoiy faollik	Psixik faollik

Jismoniy faollik-soglam organizmning harakat qilishga bo‘lgan turli mavjud to‘siqlarni yengishda tabbiy ehtiyojdir. Psixik faollik-bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagи predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir. Bolaning makatabada muvaffaqiyatli o‘qishi ko‘p jihatdan ularning mакtabga tayyorgarlik darajalariga bogliq.

## 2-jadval

Bolaning maktabda o‘qishga tayyorligi quydagilarni o‘z ichiga oladi			
1.Shaxsiy tayyorgarlik	2.Intellektual tayyorgarlik	3.Harakat tayyorgarligi	4.O‘quv faoliyatiga tayyorgarlik

Birinchi sinfga borgan bola zur ishtiyoq bilan o‘qishni boshlaydi. U uchun hamma narsa qiziq va yangilik, bilim olishga bo‘lgan intilish kuchli bo‘ladi. Bu yosh davrida asosan bilish sohalari, so‘ngra esa emotsiyonal motivatsion yo‘nalish bo‘yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo‘nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzilikkacha bo‘lgan bosqichlarni o‘taydi. Obrazlilik deyilganda bolalarning turli obrazlarni yaratishi, ularni o‘zgartirishi va erkin harakatga keltirishi tushunilsa, ramzlilik deyilganda esa belgilar tizimi (matematik,lingvistik,mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi. O‘quv faoliyati kichik mакtab yoshidagi bolalarda o‘qishda ma’lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga sharoit yaratib beradi.

Aynan ana shu o‘rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o‘qishga harakat qiladi. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o‘zlar erishgan muvaffaqiyatlarini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyatlari bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo‘lish nihoyatda muhim. Kichik mакtab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emosional zo‘riqishni yuzaga chiqaradi. Bu xususiyatlar aslida mакtabgacha yosh davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik mакtab davrida, shuningdek o‘smirlik davrida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. [2]

Kichik mакtab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergen baholariga qarab, o‘zlariga o‘zlar boho beradilar. Shuningdek, o‘quvchining o‘ziga-o‘zi beradigan bahosi, turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga ham bogliq ravishda bo‘ladi. Kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarda o‘z-o‘ziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat - mos yoki past ham bo‘lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo‘lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida shakllantirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik mакtab davrida boshqarishdan o‘z-o‘zini boshqarishga o‘tishi nihoyatda muhimdir.

Bu davrda yetakchi bo‘lgan o‘quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar - o‘yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o‘quvchi shaxsi rivojiga bevosita samarali ta’sir ko‘rsatadi. [6]

Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bogliq bo‘lgan shaxs xususiyatlari tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda asosan, muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topa boshlaydi.[7]

Bu yoshdagi bolalar soatlab yolgiz holda sevimli mashgulotlari bilan band bo‘lishlari va shular asosida ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlari shakllanadi. Kichik maktab davridan boshlab o‘quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga amaliy va psixologik jihatdan tayyorlashga e’tibor beriladi.[8] Bu davr ichida bolalarda mehnatga nisbatan ongli, ijobiy munosabatda bo‘lish asoslari tarkib topa boshlaydi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar zarur bo‘lgan harakat va amallarni tezda o‘zlashtirib va egallab ololmaydilar, ko‘proq ortiqcha va chalkash harakatlar qiladilar. Mehnat jarayonidagi turlicha ish harakatlarini, misol uchun: tikish, to‘qish, kiyish yoki taxtalarni randalash kabi ish harakatlarni qiyalmasdan va birmuncha oson bajaradigan bo‘lish uchun har bir ishda har qanday harakatlar qilish kerakligini va bu harakatlarning qay tarzda amalga oshirilishini aniq bilib olish va esda qoldirish kerak bo‘ladi. Harakatlarni qayta-qayta takrorlash, mashq qilib borish natijasida kichik yoshdagi o‘quvchilarda uchrab turadigan ortiqcha va chalkash harakatlar sekin astalik bilan yo‘qolib boradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish mumkinki, ushbu maqola orqali siz bolaning maktabga intellektual tayyorgarligi(aqliy tayyorgarlik) maktabga kirishi, ya’ni hayotidagi burulish chogidagi asosiy faoliyati psixologik xususiyatlari haqida ma’lumotga ega bo‘lasiz. Ushbu maqola orqali kichik mакtab yoshidagi bolarning psixologik, fiziologik hamda individual qiziqishlari borasidagi bilimlaringizni mustahkamlasangiz bu bizning yutugimiz hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Урунтаева Г.А. Детская психология. - М.: «Академия», 2010. -С. 36.
2. Olimjonovna, R. Z. (2024). EMOTSIONAL INTELLEKT BOLAJAK MUTAXASSISLARNING MUHIM XUSUSIYATI SIFATIDA. SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI , 2 (4), 185-192
3. E. Goziyev. Ontogenet psixologiyasi/darslik /.Tosbkent:”NIF MSH”, 2020, 288 bet.
4. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Z.T. Nishanova va boshq. - Toshkent: « 0 ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 600 b.
5. Rahmatullayeva, Z. O. (2021). DEVELOPMENT OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN PRESCHOOL CHILDREN. Экономика и социум, (5-1 (84)), 414-417

6. Rahmatullaeva, Z. (2022). O'QITUVCHILARNING KASBIY OLISHI VA PEDAGOGIK MAKORATLARI. 21-asr olimi , (5-1(86)), 37-38
7. Roziqova, M. (2024). O'SMIRLARDA IJTIMOIY TARMOQLAR TASIRIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING OLDINI OLISH PSIXOLOGIK XIZMATNING DOLZARB VAZIFASI SIFATIDA. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(1), 95-97
8. Roziqova, M. (2023). Baynalminal oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Interpretation and researches, 1(1).
9. Karimov, J. J. O. G. L., & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. Science and Education, 5(2), 513-519.
10. Jo'Rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. Science and Education, 5(3), 490-494.
11. Azimova, O. A. Q. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarida kasbiy mahorati. Science and Education, 4(6), 718-722.
12. Абдуллаев, Т. У. (2024). Бошланғич таълимнинг математика дарсларида талабаларнинг мустақил ишларини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари. Science and Education, 5(4), 470-475.
13. Абдуллаев, Т. У. Центральная предельная теорема для последовательностей зависимых бернуллиевых случайных величин.